

MAQSUD BESHIMOV



SENIOR LECTURER
BUKHARA STATE
UNIVERSITY

**ABDULVAHID MUNZIM - ENLIGHTENED POET,
STATE AND PUBLIC FIGURE**

**АБДУЛВАХИД МУНЗИМ - ПРОСВЕЩЕННЫЙ ПОЭТ,
ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ**

**ABDULVOHID MUNZIM - MA'RIFATPARVAR SHOIR,
DAVLAT
VA JAMOAT ARBOBI**

Abstract. In this article, the life path, scientific and creative path of the enlightener, poet, state and public figure Abdulvahid Munzim, his role in the Jadidism movement in Bukhara, his activities of Jadidism and Enlightenment are scientifically analyzed.

Key words: Munzim, Ainiy, Hamdi, Osmankhoja, jadid, enlightener, textbook, newspaper, manual, book, madrasa, reform, news.

Аннотация. В данной статье научно анализируются жизненный путь, научный и творческий путь просветителя, поэта, государственного и общественного деятеля Абдулвахида Мунзима, его роль в движении джадидизма в Бухаре, его деятельность джадидизма и просветительства.

Ключевые слова: Мунзим, Айний, Хамди, Османходжа, джадид, просветитель, учебник, газета, пособие, книга, медресе, реформа, новости

Annotasiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvar, shoir, davlat va jamoat arbobi Abdulvohid Munzimning hayot yo'li, ilmiy-ijodiy yo'li Buxorodagi jadidchilik harkatida tutgan o'rni, jididchilik va marifatparvarlik faoliyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Munzim, Ayniy, Hamdiy, Usmonxo'ja, jadid, ma'rifatparvar, darslik, gazeta, qo'llanma, kitob, madrasa, islohot, yangilik.

KIRISH (INTRODUCTION)

Mustaqillik davrida milliy davlatchilik an'analarini qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash, xalqimizning moddiy va ma'naviy meros namunalarini xolis o'rganish imkoniyati yaratildi.

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

Ma’rifatparvar ziyolilarning ibratli hayot yo’llari, tarixiy qarashlarini zamon talablari asosida tadqiq olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 3 avgustda mamlakatimiz ijodkor ziyolilari bilan bo‘lgan uchrashuvda Vatanimiz tarixi va unda o‘tgan buyuk siymolar to‘g‘risida faxrlanib, shunday fikr bildirgan edi: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”.

O‘z davrida Buxorodagi jadidchilik harakatida faol qatnashchisi, dastlabki jadid maktabini ochgan ma’rifatparvar, davlat va jamoat arbobi bo‘lgan Abdulvohid Burhonov (taxallusi-Munzim) ning tarix fani taraqqiyoti hamda badiiy adabiyotni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi salmoqlikdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

1. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yaratilgan mahalliy manbalar va matbuot materiallari
1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
2. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

TADDIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Mirzo Abdulvohid Burhonov 1875 yili Buxoroda tavallud topadi. Dastlabki ta’limni eski maktabda oladi. XIX asrning 90-yillaridan Abdulvohid Burhonov Munzim taxallusi bilan ma’rifiy she’rlar yoza boshlaydi, keyinchalik esa amaliy faoliyatida ham ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadi. XX asrning birinchi o‘n yilligida Munzim yangi usuldagi maktab ochish uchun harakat qila boshlaydi.

Buxorodagi dastlabki jadid maktabining ochilishi ham uning nomi bilan bog‘liq. S.Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida keltirilishicha, 1326 yil hijriyda, shavval oyi o‘nida (milodiy 1908 yil 23 oktyabrda, yangi hisob bilan 1908 yil 5 noyabr) Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy tili (tojik)da usuli jadida maktabi ochiladi va unga Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlanadi. “Bu maktabda dastlab o‘quvchilar quyidagilar edi: Abdurahmonbek - Abdullabek o‘g‘li, uning xizmatkori Abdug‘ani, Afzal va Akram - Ahmad maxdum Hamdiy o‘g‘li, Muhammadamin - Saidjon maxdum o‘g‘li, Abduqayim - Abdushukur o‘g‘li. Idi qurbongacha, ikki oy muddatda o‘quvchilar adadi (soni) 12 taga yetdi”.

Abdulvohid Munzim ushbu voqeani keyinchalik o‘zi yozgan “Arzi hol”ida xotirlab shunday yozgan: “1908 yil Buxoroda yangi usuli jadid maktabini ochdim. Maktab bir yil faoliyat ko‘rsatib, ulamolarning tazyiqi va hasadiga uchradi. Harchand yangi maktabning tarafdorlari ko‘p bo‘lsa-da, ammo g‘alaba ular (mutaassib ruhoniylar) tomonida bo‘ldi va ulamolar bu maktabni yopdilar” .

Ushbu maktabni ochish va unda o'quv jarayonini yo'lga qo'yishda Abdulvohid Munzim boshchiligida S.Ayniy, Ahmadjon Hamdiy va Hamidxoja Mehriy kabi taraqqiyparvarlar yaqindan turib yordam beradilar. Yangi usul maktabini tashkil etish to'siq va qiyinchiliklarga uchradi. Chunki maktabni tashkil etganlarning o'zi uning usul va qoidasidan xabarsiz bo'lib, tatar muallimlari bu borada tajribali edi. Shuning uchun ham S.Ayniy yozgan ediki, "Yangi usul maktabini tashkil etgan bo'lsakda, ta'lim tartibi nihoyatda darajada buzuq, barchamiz usul va o'qitish tartibi qoidalaridan xabarsiz edik, hech bir narsani bilmaganimizdan jonimiz siqilmoqda edi. Bizga shu narsa belgili ediki, yangi usul manbai Tataristondir".

S.Ayniyning o'zi Abdulvohid Munzimning yangi usul maktabi ochilguniga qadar (1908), tatar maktablariga qatnab, dars berish va o'qitish yo'llarini o'rgangan. U "tatar maktabida olti oy ishlab, tajriba orttirdim" - deya qayd etgan edi. Maktabda darslarni tashkil etish hamda yangi usullaridan yetarlicha foydalanish uchun S.Ayniy Buxoro shahrida yashaydigan, yangi usul maktablari ishidan xabardor bo'lgan Nizom Sobitiy (Sobitov) degan kishi oldiga maslahat uchun boradi. U Attor madrasasi qarshisidagi tatar Xolid Burnashev uyida shunday maktab borligi, o'sha maktab tajribasidan o'rganish lozimligini maslahat beradi.

S.Ayniy ma'lumotlariga qaraganda, Abdulvohid Munzimning yangi usul maktabi shuhrat topgandan keyin (1908) Buxoro madrasalarida tahsil oluvchi ko'pgina yoshlar, ilmu-toliblar madrasa darslaridan qanoat hosil qilmay, maktab atrofida birlashib, o'qish va xizmat qilishga kela boshlagan. "Bulardan biri Po'latxo'ja o'g'li Usmonxo'ja edi" deb qayd etadi, S.Ayniy. 1909 yili maktabda haqiqiy tartib intizom kiritish, usuli savtiya maktablari bilan yaqindan tanishmoq uchun "rafiqlarimizdan Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li va Hamidxoja Mehriylarni Bog'chasaroy va Istanbulga yubormoqni rejalashtirdik. Ular biron oy Bog'chasaroyda to'xtab, Ismoil Gasprinskiy bilan suhbat qilib, uning yangi usul maktabini ko'rib, bir necha hafta tajriba o'rganib va orttirib, keyin Istanbulga borib, ularning yangi maktablarini ko'rib, ta'lim-tarbiya, yangi maktablarga va boshqa fanlarga oid kitoblar sotib olib, u yerda uch oy to'xtab, ma'lumotlarini ziyoda qilib, Buxoroga qaytib, jadid maktablariga xizmat qilishlarini nazarga olgan edik".

1909 yilning may oyida Usmonxo'ja va Hamidxoja Mehriylar yo'lga chiqib, dastlab Samarqanddagi Abdulqodir Shakuriy maktabida bo'lib, uning imtihonida qatnashadilar. Shu vaqt oralig'ida S.Ayniy va Ahmadjon Hamdiy ham tajriba orttirish va jadid maktabining kelajagini yuksaltirish maqsadida 1909 yilning bahor fasli oxirlarida ikkinchi marta o'n kun davomida Samarqandda, Shakuriy maktabida bo'ladilar. 1908 - 1909 yillarda Abdulvohid Munzim va S.Ayniyning maktabida o'quvchilar soni ko'payib, 30 nafarga yetadi. "Biz boshqa talaba qabul qilmadik. Aksariyat o'qiydiganlar bahorning boshida maktabga kelgan edilar, yozda ta'til qilmasdan qaror qildikki, 5-6 oylik o'rganganlarini xalqqa ko'rsatib, manzur qilsak".

Afsuski, Abdulvohid Munzim va S.Ayniy tomonidan ochilgan yangi usul maktabi eskicha o'qitish tarafdori bo'lgan mutaassib ruhoniylarning qattiq noroziligiga uchraydi. Ular yangi usul maktablari va tarafdorlariga qarshi har xil fitna ig'volarni to'qib chiqara boshlaydilar. Maktabni tezroq yopish maqsadida barcha choralar ko'riladi. S.Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar"

asarining “Maktabni yopmoqqa hozirlanish va imtihon” bobida “Maktabning shuhratini va xalqning rag‘batini ko‘rib, aksilharakat ko‘rina boshladi” - deb yozgandi.

Hatto Buxoroda faoliyat ko‘rsatayotgan tatar maktablariga ham mutaassib ruhoniylar tomonidan tazyiq o‘tkaziladi. S.Ayniyning yozishicha, ularning maktabiga birinchi bo‘lib qarshi chiqqan zot asli qozonlik bo‘lgan madrasa mudarrisi tatar mulla Qamar bo‘lgan. Mulla Qamar fitnachi, shuhratparast bir kishi bo‘lgan. Shuningdek, u Rossiyaning Buxoroda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy agentligining sho‘basida ishlagan. Mulla Qamar qaysi mulla va ulamo ahlining uyida majlis yoki biron muhim tadbir bo‘lsa, o‘sha majlislarda faqat yangi usul maktabi va uning zararli ekanligi to‘g‘risida gapirgan.

Yangi usul maktabiga birinchi bo‘lib, qarshi chiqqanlardan mulla Qamar, mulla Abdurazzoq va mulla Xolmurod Toshkandiyalar bilan birlashib qozikalon Burhoniddin va rais Baqoxo‘jalar vositasi orqali Abdulvohid Munzim va S.Ayniy maktabini qanday bo‘lmasin yopish chora-tadbirlarini ko‘rganlar. Yangi maktab masalasida Ostonaqul Qo‘shbegi maktabdorlarga xayrixoh bo‘lgan. Ulamo jamiyatidan faqat domla Ikrom (uning asl ismi-sharifi Muhammad Ikrom ibn Abdusalom, u Buxoro amirligida mulla Ikromcha, domla Ikromcha nomlari bilan tanilgan edi) usuli jadid maktablarining tarafdori bo‘lgan, uni qo‘llab-quvvatlagan ziyoli kishilardan bo‘lgan.

Buxoroda 1909 yildan shakllangan jadidlar tashkiloti avval ma‘rifatparvarlik ishlarini olib bordi. Munzim bu tashkilot ishiga faol qatnashib, shu yili Mukammil Burhonov, Sadridin Ayniy bilan birgalikda bilan «Tarbiyaviy atfoll» («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyatini tuzishda ishtirok etdi. Bu jamiyat buxorolik ma‘rifatparvarlar va hur fikrli ziyolilar o‘rtasida ilg‘or demokratik g‘oyalarni targ‘ib etib, xalqning siyosiy ongini uyg‘otishda katta ahamiyat kasb etdi.

1917 yil fevral inqilobidan so‘ng Buxoro jadidlari A.Burhonov boshliq eski jadidlarga, F.Xo‘jayev va A.Fitrat boshliq yangi jadidlarga bo‘linadi. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma‘rifatparvarlik bo‘lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafdori edi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida «Yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilib, Munzim unga rais etib saylanadi. 1918 yildan 1920 yilning sentyabrigacha Munzim Toshkentda yashaydi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, u avval Markaziy ijroiya qo‘mitasi raisining o‘rinbosari, keyinchalik Xalq maorifi noziri, Sog‘liqni saqlash noziri lavozimlarida ishlaydi.

Xalq maorifi noziri lavozimida ishlagan Munzim 1922 yil iyunida milliy kadrlar, xususan, muhandislar tayyorlash maqsadida bir guruh buxorolik yoshlarni Germaniyaga yuborish to‘g‘risidagi BXSr hukumati qarorining qabul qilinishiga katta hissa qo‘shadi. Shu qarorga asosan, u mazkur ishni tashkil etish bo‘yicha komissiya raisi etib tayinlangan edi. 1922 yilning yozida Munzimning shaxsan o‘zi buxorolik 44 kishini Germaniyaga olib borib, Berlindagi o‘quv yurtlariga joylashtiradi. 1920 yillarning o‘rtalaridan boshlab Munzim o‘zini tamoman ijodiy va publisistik faoliyatga baxshida etadi. 30-yillar boshida «Tojikistoni surx» gazetasida ishladi.

Abdulvohid Munzim 1934 yilda uzoq davom etmagan kasallikdan so‘ng Dushanbeda vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference)

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш-халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир //Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 32; Унинг ўзи: Тарихи амирони манғитияи Бухоро. – Саҳ. 90
3. Айний С. Таърихи инқилоби фикр дар Бухоро. – Душанбе: Матбуот, 2005. – Саҳ. 33.
4. Табаров С. Мунзим. – Душанбе: Ирфон, 1991. – Саҳ. 33.
5. Ҳожи Муин. Самарқанд матбуотининг тарихи. // Зарафшон. 1923 йил, 5 май.
6. Ҳожи Муин. / Танланган асарлар. (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Н.Намозова). Т: Маънавият, 2005. – Б. 123 – 124.).
7. Умняков И.И. К истории новометодной школы в Бухаре. // Бюллетень САГУ. – Ташкент: 1927. Вып. 16. – С. 82 – 95.
8. Айний С. Қизбола ёки Холида. Ибтидоий қиз мактаблари учун адабий, ахлоқий ўқув китоби. Ношир: Абдулвоҳид Мунзим, Берлин, 1924. 20. Б.
9. Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Москва: 1926.
10. Beshimov Maqsd Komilovich “Mirzo Abdulvahid Munzim-A Well-Known Educator, Writer, Editor and Public Figure” International Journal of Development and Public Policy, 1 (7), 144–146.